Ashirboyev Samixon

AREAL LINGVISTIKA



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘zbek shevashunosligi markazi

Ashirboyev Samixon

Areal lingvistika

43310

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
ToshDO‘TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2023

UO‘K: 81'286(075)
KBK: 82.1-67ya7
A 93

Ashirboyev, Samixon.
Areal lingvistika [Matn] : darslik / S. Ashirboyev. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 148 b.

O‘zbek tilshunosligida areal lingvistika nisbatan yosh fan hisoblanadi. Bu fan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida shakllangan bo‘lsa-da, u keyinchalik dialektologiya bilan birga rivojlandi va uning natijalariga asoslandi. Endilikda u mustaqil fan darajasiga ko‘tarildi. Areal lingvistika oliy ta’limning “Lingvistika (o‘zbek tili)”, “Folklorshunoslik va dialektologiya” magistratura mutaxassisliklari o‘quv rejalarida majburiy fanlar blokidan joy oldi va uning ta’limi bo‘yicha tajribalar to‘plandi. Bu darslikda areal lingvistikaning paydo bo‘lishi, uni o‘rganish metodlari, lingvistik geografiya bilan umumiyligi va xususiyligi, uning arealogiya bilan munosabati hamda areal lingvistikaning areal, takson va izoglossa kabi nazariy masalalari *turkiy tillar va o‘zbek tili hamda uning shevalariga tatbiqan* yoritildi. Darslikdan magistrantlar bilan birga, ilmiy xodimlar va til ilmi bilan qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

O‘rozboyev Abdulla,
Urganch davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Hakimova Muhayyoxon,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug‘iga asosan barcha mutaxassisliklar uchun talabalarga darslik sifatida tavsiya etgan.

© Ashirboyev S.

ISBN 978-9943-9441-9-0 **© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.**

Kirish

Areal lingvistika fan sifatida shakllanib ulgurdi. U oliy ta'lim muassasalarining filologiya yo'nalishi o'quv rejalaridan o'rin oldi. Ayniqsa, "Lingvistika" va "Folklorshunoslik va dialektologiya" magistratura mutaxassisligi o'quv rejasida majburiy fanlardan biri sifatda shakllantirildi. Garchand bu fan dialektologiya negizida, uning bevosita tarkibiy qismi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa-da, keyinchalik u o'zining mustaqil obyektiga ega bo'ldi va dialektologiya bag'ridan ajralib chiqdi hamda umumiy tilshunoslik, geografiya, tarix, arealogiya (biologiya) fanlari bilimlariga suyangan holda, til faktlarining vujudga kelishi, ayni bir til va sheva faktlarining (izoglossa) tarqalishi, u namoyish qiladigan lingvistik belgining xususiyatlarini lingvistik kartada aks ettirish va uni sharhlash orqali o'rganadi, tillar va shevalar guruhi, ular kesishgan chegaralardagi hamda ularning yaxlit bir hududdagi xususiyatini tadqiq qiladi. Demak, areal lingvistika bir til va bir sheva doirasidan chiqadi hamda kichik va katta hajmli hududlarda til va shevalarning xususiyatlari to'g'risida bahs qiladi.

Areal lingvistika fanining shakllantirilishiga keyingi davrlarda til va shevalarni o'rganishga nisbatan o'zgacha qarash, uning taraqqiy qilish xususiyatlariga bo'lgan yangicha yondashuv sabab bo'ldi. Avvalo, areal lingvistikaning rivojlanishida sotsial jarayonlar, ya'ni dunyo bo'ylab aholi vakillari migratsiyasi jarayonlarining kuchayishi muhim rol o'ynamoqda. Dunyoning deyarli barcha regionlarida shaharlar kundan kunga yiriklashib, u yerda sanoatning, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish jarayonlari jadallashmoqda, shu bilan bog'liq ravishda mamlakat aholisining muayyan qismi shaharga tomon og'moqda, hatto Yevropaning yirik shaharlarida tub millat vakillari bilan birga etnik jihatdan turlicha bo'lgan aholi ham paydo bo'lmoqdaki, bu ijtimoiy jarayonlar an'anadagi lahja, dialekt, sheva degan tushunchalarga nisbatan boshqa rakursdan qarashga majbur qilmoqda, natijada fanda "Urban dialekt" degan tushuncha paydo bo'ldi. Bu kabi shahar dialektlarida yetakchi pozitsiyalarni, garchi an'anadagi etnik guruh shevasi egallayotgan bo'lsa-da, u tamomila yangi (aralash) dialekt holatiga kelib qolmoqda. Ayrim yirik davlatlarda dialektlar to'g'risida fikr yuritish qiyin. Bunday sharoitda

dialektologik tadqiqotlar olib borishning imkoniyati chegaralanadi, balki muayyan hududda qaysidir dialektning izlarini qidirish va uning interferensiya sharoitiga tushib qolganligini tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Bu esa dialektologiyaning emas, balki areal lingvistikaning vazifasiga kiradi.

1-mavzu. Areal lingvistika fanining predmeti va vazifalari

Reja

1. Areal lingvistikaning maqsad va vazifalari.
2. Areal lingvistikaning talqinlari.
3. Areal lingvistikaning obyekti.

***Tayanch tushunchalar**: areal lingvistika, lingvistik geografiya, area, areal, dialektologiya, arealogiya, kartografiya.*

Matn

Areal lingvistikaning maqsad va vazifalari. Areal lingvistika tushunchasi lotincha *area – maydon, kenglik, hudud* hamda *lingvistika – tilshunoslik* tarkibiy qismlaridan iborat. Areal so‘zidagi *-l* affiksi sifat yasovchi bo‘lsa-da, uning yasovchiligi funksional emas.

Areal lingvistika termini dastlab M. Bartoli va G. Vidossilar tomonidan 1943-yilda kiritilgan[1] va uning asosiy tamoyillarini M. Bartoli 1925-yilda ishlab chiqqan[2].

Areal lingvistikaning maqsadi til va dialektlarning hududiy xususiyatlarini o‘rganishdir, ya’ni muayyan til hududini frontal qamrab olish, undagi keng tarqalgan va shu hududda dominant tilning aloqadagi tillarga ta’siri va o‘zaro ta’sirini tadqiq qiladi, til massividagi tillarning dialektal zonalarini belgilaydi hamda zonadagi tayanch dialektning xususiyati va uning atrof (periferiya) tillari va shevalari bilan munosabatini ilmiy talqin qiladi. Eng muhimi, areal lingvistikaning o‘z metodi bo‘lib, u *lingvistik geografiya* deyiladi, shu metodda til va shevalardagi izoglossalarning tarqalishi o‘rganiladi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, til va shevalarning hududiy belgilari aniqlab olinadi. Ular til va dialektlardagi izoglossalarning harakatlanish kengligi, innovatsiya, marginal va oraliq zonalardan iboratdir.

Areal lingvistikaning mohiyati. Areal lingvistika umumlingvistik muammolar kompleksini tadqiq qiladiki, ular quyidagilarda ko‘rinadi:

[1] Bartoli M., Vidossi G. Lineamenti di linguistica spaziale. – Millane,1943.
[2] Bartoli M. Introduzione alla neolinguistica. Geneve,1925.

Ashirboyev Samixon

Areal lingvistika

darslik

“Bookmany print” nashriyoti
Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.
Bosishga ruxsat etildi: 04.05.2023.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 $^{1}/_{16}$
Nashriyot bosma tabog‘i 8,5. Shartli bosma taboq 8,7.
Adadi 500 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10

Ashirboyev Samixon

AREAL LINGVISTIKA

BOOKMANY PRINT
publishing company

ISBN 978-9943-9441-9-0

9 789943 944190